

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# MDH MAMLAKATLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna

DIU tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning asosiy maqsadi MDH mamlakatlari orasida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Rossiyada islam moliya sanoatining rivojlanish tajribasini tadqiq qilish, loyihalarni islomiy moliyalashtirish amaliyoti, rivojlanish yo'lidagi to'siqlar va yechimlar o'rganishdan iborat. Shuningdek, O'zbekistonda investitsiyalarni islomiy moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilinib, islam moliya tizimini rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish va bu borada chora-tadbirlarni ishlab chiqishda MDH mamlakatlari orasidan islam moliyasi rivoj topgan mamlakatlar tajribasini O'zbekistonda tatbiq qilish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Islomiy moliya sanoati, islomiy investitsiyalar, islomiy moliya xizmatlari va mahsulotlari, me'yoriy-huquqiy baza, ITB, XSRIK, investitsiya loyihalari.

**Аннотация:** Основной целью данной статьи является исследование опыта развития индустрии исламских финанс в Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане, Туркменистане, Азербайджане и России среди стран СНГ, изучение практики исламского финансирования проектов, препятствий и путей их развития. Кроме того, была проанализирована практика исламского финансирования инвестиций в Узбекистане, а также направления реализации опыта стран СНГ, где исламское финансирование получило развитие в Узбекистане, с целью устранения препятствий на пути развития исламского финансового системы и разработать меры в связи с этим.

**Ключевые слова:** Индустрия исламских финансов, исламские инвестиции, услуги и продукты исламских финансов, нормативно-правовая база, ITB, XSRIK, инвестиционные проекты.

**Abstract:** The main purpose of this article is to research the development experience of the Islamic finance industry in Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, Azerbaijan, and Russia among the CIS countries to study the practice of Islamic financing of projects, obstacles, and solutions to development. In addition, the practice of Islamic financing of investments in Uzbekistan was analyzed, and the directions for the implementation of the experience of the countries of the CIS where Islamic finance has developed in Uzbekistan in order to eliminate obstacles to the development of the Islamic financial system and develop measures in this regard were considered.

**Key words:** Islamic finance industry, Islamic investments, Islamic finance services and products, regulatory framework, ITB, XSRIK, investment projects.

## KIRISH

Bugungi kunda islam moliya tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, islam moliyasi va investitsiyalaridan foydalanish nafaqat musulmon va shu bilan birgalikda, musulmon bo'limgan mijozlarning islomiy investitsiyalarga bo'lgan talabining ortganligini tahlillarda ham ko'rish mumkin.

2023-yil yakunlariga ko'ra, jahonda islam moliyasining aktivlari 4,0 trln. AQSH dollarga yetdi. Butun jahon miqyosida islam moliya munosabatlarini qo'llashga doir huquqiy asos 47 ta mamlakatda yaratilgan bo'lib, bu davlatlarda keng ko'lmdagi moliyaviy xizmatlar taklif etayotgan 1600 ga yaqin moliya muassasalari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda ham islam moliyasini rivojlanishiga doir keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishga doir ishlar ilk bor 2004-yilda Islom taraqqiyot banki (ITB) tomonidan O'zbekistonda energetika va sog'liqni saqlash sohasida loyihalarni moliyalashtirish uchun "ijara" va "murobaha" shartnomalaridan foydalaniishi bilan boshlangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Xususiy sektorni rivojlanadirish islam korporatsiyasi (XSRIK) a'zoligiga ham kirgan, bu korporatsiya tomonidan 350 million dollardan ortiq loyiha va rejalar bajarilishi belgilangan. Korporatsiya asosan loyihalarini moliyalashtirishda "murobaha" shartnomasidan foydalangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev IHTTIF kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqida "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatimizni birlashtiradigan ransport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi", – deb ta'kidlagan edi.



Islom moliyasining mamlakatimiz taraqqiyoti uchun bir qancha foydali tomonlari mavjud bo'lib, jumladan, faoliyati islomiyligi moliyalashtirishga asoslangan turli davlatlar tomonidan mamlakatimizda islom investitsiyalarini jalb qilish mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyasining rivojiga to'sqinlik qiladigan br qancha muammolar va qilinishi kera bo'lga chora-tadbirlar mavjud bo'lib, islom moliya sanoati rivojlanib borayotgan MDH mamlakatlarining islom moliysi tajribasidan foydalanih O'zbekiston uchun bu sohaning yanada rivojlanishiga olib keladi. Mazkur maqolamizda, MDH mamlakatlari orasida islom moliysi rivojlanib borayotgan va bu yo'nalishda ma'lum bir yutuqlarga erishib ulgurgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon va Rossiya davlatlarining tajribalarini o'rganish va O'zbekistonda ushbu yo'nalishni rivojlanishi yo'lida foydalanish imkonini beradigan ilmiy xulosa va tavsiyalarini ishlab chiqish ilmiy maqolamizning dolzarbligini ko'rsatib beradi.


## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur maqolamizda asosan MDH mamlakatlarining islom moliya sanoatidagi rivojlanish tajribasini o'rganish va bu borada O'zbekistonda islom moliyasini yanada rivojlantirishga doir manfaatli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Eng avvalo, islom moliysi atamasiga e'tibor qaratishni lozim topdik. "Islom moliya tizimi" atamasi 1980-yillarning o'ttalarida paydo bo'lganligi sababli ilmiy atamalar orasida nisbatan yangidir. Ko'pincha, bu konsepsiya foizsiz moliyaviy amaliyotlar tizimi sifatida tushuniladi. Biroq, islomiy moliya tamoyillari kredit foizlarini rad etibgina qolmasdan, bu tushunchadan anchayin kengroq hamdir. Islom moliyasiga nisbatan XXI-asrda qiziqish yuqori bo'lib, ilmiy izlanishlar olib borish va tahliliy materiallar tayyorlash borasidagi ilmiy faoliyat ko'payib bormoqda. Islom moliysi bo'yicha ko'plab xorijiy, MDH va o'zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan, hozirda ham islom moliysi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda davom etmoqdalar. Xususan, xorijlik olimlardan (Muhammad Taqi Usmoniy, 2007), (Chapra M.U, 2011), (Habib Ahmed, 2002) kabilar islom moliyasiga doir olib borgan ilmiy ishlari bugungi kun uchun qadrli va tahsinga sazovordir. Shunindek, MDH mamlakatlari olimlaridan (Л.Р. Сюяйнен, 1986), (О.Трофимова, 2009), (В.В. Павлов, 2003), (Р.И. Беккин, 2010), (В.Антропов, 2017) va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida islom moliysi, shuningdek, islomiy investitsiyalar yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda o'zbek olim va tadqiqotchilar islam moliyasiga doir tadqiqotlar olib borishmoqda va bu esa O'zbekistonda ham islom banklari va darchalari ochishda o'z taklif va tavsiyalarini ishlab chiqishayotgani tahsinga sazovordir. O'zbek tadqiqotchi olimlaridan (Х.Xasanov, 2017), (S.Z. Abrorov 2020), (J.Immannazarov, 2023), (R.X. Zayniddinov, 2022) va boshqa tadqiqotchi olimlar bu sohada o'z ilmiy ishlarini olib borishgan. Lekin, O'zbekistonda islom moliyasiga doir kam sonli tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borishgan va biz ham bu sohada o'zimizning ma'lum bir hissamizni qo'shishga kirishdik. Biz bu ilmiy maqolamizda, MDH mamlakatlari hisoblangan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjonda islom moliya tizimi ma'lum bir darajada ravnaq topmoqda, bu davlatlarning tajribasidan foydalangan holda O'zbekistonda islom moliyasini ravnaq toptirish, bank tizimi, islomiy investitsiyalarini mamlakatimizda keng jalb qilishga doir xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratganmiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolamizda turli tadqiqot metodlaridan, ayniqsa, miqdoriy tadqiqot usulidan keng darajada foydalanildi. Bundan tashqari, maqsadli rivojlantirish, deduksiya va induksiya, grafik tasvirlash, tizimli-qiyosiy tahlil va iqtisodiy statistik kabi tadqiqot usullaridan ham ilmiy maqolamizda foydalanildi (1-rasm).



1-rasm: Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari



## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

So'ngi yillarda nafaqat musulmon balki musulmon bo'limgan mamlakatlarda ham islam moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu sohaga qiziqish MDH mamlakatlari orasida ham ancha yuqori. MDHning 11 davlatidan beshta davlat turli darajada islam moliya sanoatini yoki islam bank-moliya tizimini joriy etish bo'yicha qonunchilik bazasini rivojlantirmoqda – bular Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondir. O'zbekiston hali bu yo'nalishda rivojlanishning dastlabki bosqichida. Qozog'iston va Qirg'iziston hukumatlari ushbu moliyaviy segmentning istiqbollarini ko'rib, qonunchilikni islam moliyasi talablariga moslashtirdilar. Nati-jada to'laqonli islam banklari, jumladan, Qozog'istonda Amirlikning Al-Hilol banki va Qirg'izistonda Eko Islamik Bank filiali tashkil etildi.

**1-jadval: MDH mamlakatlarida islam moliyasi hozirgi holati**

No	Mamlakat	Islam moliyasi holati
1	Qozog'iston	<p>1995-yildan boshlab Qozog'iston ITB a'zosi hisoblandi.</p> <p>2000-yildan boshlab Qozog'istonda islam moliyasiga qiziqish boshlangan.</p> <p>2003-yilda "Bank Turan Alem" murobaha mexanizmga asoslangan shariat talablariga mos keluvchi kredit berish xizmatlarni ko'rsata boshlaydi.</p> <p>2009-yilda "Islomiy moliyalashtirish tashkilotlari va islomiy banklarni tashkil etish hamda faoliyatni bo'yicha masalalariga oid Qozog'iston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'grisida"gi qonun imzolandi. Bunga ko'ra, mamlakatning Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, "Bank va bank to'g'risida"gi va boshqa qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.</p> <p>2009-yil Qozog'iston va BAA hukumati o'ttasida Qozog'istonda islomiy bank ochishga doir kelishuvga erishiladi.</p> <p>2010-yil mart oyida BAAAdagi "Al -Hilol" bankning Qozog'istonda filiali ochilib, islomiy bank sifatida shariat mexanizmlari asosida bank amoliyoti o'tkazishga ruxsatnomha berildi.</p> <p>2009-yilda Qozog'istonda islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qiluvchi birinchi brokerlik kompaniyasi "Fattax Finance" ro'yxatdan o'tkazilib, o'z faoliyatini boshladi.</p> <p>2011-yil mamlakatda "Islomiy moliyalashtirish masalalari bo'yicha Qozog'iston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, qonunlarda asosan davlat islomiy qimmatli qog'ozlarni chiqarishga ruxsat berilganligiga asoslangan edi.</p> <p>2012-yil Qozog'istonda Milliy bankning Islomiy moliyaviy xizmatlar bo'yicha kengash (IFSB) a'zoligiga kirishga oid kelishuv imzolandi.</p> <p>2011-yilda mamlakatda Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining zakot jamg'armasi o'z faoliyatini boshladi, bu jamg'arma asosan zakot shuningdek xayriya mablag'larini maqsadli ishlarga taqsimlovchi markaz hisoblanadi.</p> <p>2010-yilda o'zaro sug'ortalash jamiyatni (O'SJ) ko'rinishida birinchi takoful-operator o'z faoliyatini boshladi.</p> <p>77 mln dollar miqdoridagi sukuk emissiyasi (Malayziya investorlari tomonidan) amalga oshirildi. "Zaman-bank" islam bankiga aylantirildi.</p>
2	Qirg'iziston	<p>1993-yilda Islom Taraqqiyot Banki a'zoligiga kirgan.</p> <p>2006-yilda EkoBank va ITB o'ttasida o'zaro hamjihatlik va hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.</p> <p>2007-yilda "Ekobank"ning islomiy "darcha" loyihasining rasmiy ochilish marosimi bo'ldi.</p> <p>2009-yilda mamlakatda bank va bank faoliyati to'g'risidagi qonuniga qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi, shuningdek, Qirg'iziston Respublikasi Milliy banki to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir qonun qabul qilindi. Bularning barchasi mamlakatda islomiy banklar va an'anaviy barklarda islomiy "darcha"larni ochishga asos bo'ldi.</p> <p>2009-yilda "Islomiy tamoyillar bo'yicha sug'ortalashni (Takuful) va Islomiy moliyalashtirish tamoyillari bo'yicha chiqariladigan qimmatli qog'ozlar (sukuk) bo'yicha nizomlar" mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlandi.</p> <p>2010-yilda Qirg'iziston Respublikasining "EkoBank"i hissadorlari bilan o'tkazilgan umumiylig yig'ilishda bankning nomi "EkolsamlikBank" deb o'zgartirildi.</p>
3.	Tojikiston	<p>Tojikistonda Islom banklarini tashkil etishga doir qonun hujjatlari qabul qilingan Tojikistondagi "Bonki Rushdi Tojikiston" islam bahkiga aylantirildi.</p>



		1992-yilda Ozarbayjon ITB ga a'zo bo'ldi. 2002-yilda "Kavsar bank" kredit va deposit portfelini riboden tozalashni boshlaydi va ushbu bank jahon islomiy bank hamjamiyati tomonidan islomiy bank deb e'tirof etildi va hozirda mijozlarga to'rtta islomiy bank mahsulotlarini taklif etadi.
5.	Ozarbayjon	2009-yilda ITB tomonidan Cenub elektr stansiyasi qurilishini moliyalashtirish uchun istisno mexanizmi asosida 201,5 mln dollar ajratdi. 2010-yilda ITB qishloq xo'jaligi sektori, transport va boshqa turli infratuzilma sohalarini rivojlantirish uchun Ozarbayjonga 404,6 mln.dollar ajratdi. XSRIK tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "Caspian international Investment Co" va lizing co. "Ansor"
		1990 –yildan boshlab Rossiya Islom moliyasiga qiziqish boshlandi. 1991-yil Rossiya "Badr-Forte Bank" deb nomlangan tijorat banki tashkil topdi. 1997-2006-yillar mobaynida "Badr-Forte Bank"i islom tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatdi.. Bu bank ITB huzuridagi Islomiy banklar Bosh kengashi a'zosi ham hisoblanadi. 2004-yildan boshlab Rossiya Islom hamkorlik tashkilotida rasmiy jihatdan kuzatuvchi maqomini olgan. 2010-yilda Tataristonda shariat tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatuvchi investitsion kompaniya tashkil etildi.
6	Rossiya	2011-yilda LaRiba Finance kompaniyasi tashkil etilib, asosan murobaha shartnomasidan foydalanib, faoliyat yuritadi. 2011-yilda tijorat, savdo va biznes faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan Amal Finance house tashkil etilib, muzoraba shartnomasi asosida faoliyat ko'rsatadi. 2008-2011-yillarda "Bank Express" islom moliya xizmatlarini taqdim etgan, asosoan murobaha islom investitsiya shartnomasidan faoliyat yuritgan. 2016-yildan boshlab Sberbank islom moliya xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Bu bankning 2019-yilda islom moliysi sohasi aktivlari hajmi sezilarli darajada oshib, 250 mln. AQSH dollariga yetdi. 2017-yilda "Zayed Fund" ya'ni Zayed jamg'armasi tashkil etilib, murobaha va mushoraka bitimlaridan foydalanadi.

Hozirgi kunda, MDH mamlakatlari orasida Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda islomiy banklar tashkil etilgan va mijozlariga o'z xizmatlarini taklif etib kelmoqda. MDH mamlakatlari orasida islom moliysi ancha rivojlangan, shuningdek, bu mamlakatlari orasida birinchi islom banki ochilgan davlat Qozog'iston hisoblanadi. Qozog'istonda dastlabki islom banki Al Hilol Islom banki bo'lib, 2010-yilda tashkil etilgan. Ushbu bank Birlashgan Arab Amirliklarida shu nomdag'i bankning sho'basi hisoblanadi. "Al Hilol Bank" PJSC Fitch Ratings tomonidan yuqori va Moody's agentligidan A2 kredit reytingiga ega bo'lib, bu bankning moliyaviy barqarorligi ishonchliliqi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bank jismoniy shaxslarga islom banking mahsulotlarini taqdim qilib kelmoqda. Qozog'istonda 2000-yildan boshlab islom moliyasiga qiziqish va islomiy banklarni tashkil etishga urinish boshlangan bo'lsa, 2003-yilda "Bank Turan Alem" shariat mexanizmlari asosida faoliyat yurita boshlaydi. Shu bilan birga mamlakatda 2009-yildan boshlab birinchi islomi broker kompaniya "Fattax Finance" faoliyat yuritishni boshlaydi. Qozog'istonda islomiy banklarni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berildi va bu borada qonun hujjalari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, Islom moliyasi Qirg'izistonda ham sezilarli tarzda rivojlanmoqda. Qirg'iziston 1993-yilda ITB a'zoligiga kirdi va mamlakatdagi "Eko bank" "EcoIslamicBank"ka aylantirilib, islomiy moliya xizmatlarini taklif qilib kelmoqda. Xususan, 2009-yil yanvaridan sentabriga qadar "EcoIslamicBank" islomiy mexanizmlardan foydalanib 200 mln.so'mdan oshiq miqdordagi 214 ta loyihalarni moliyalashtirdi va bank mijozlariga islom moliyasi bo'yicha o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Rossiyada ham islom moliyasi sezilarli tarzda o'smoqda. Aholisining 30mln ga yaqini islom diniga e'tiqod qiladi. Bu esa mamlakatda islom banklarini tashkil etishga sabab bo'ldi. Rossiyada islom banklarini tashkil etishga bo'lgan urinishlar 1990-yildan boshlangan. Shuningdek, hozirgi kunga kelib, Rossiyada bir qancha banklar islom moliya xizmatlarini taqdim etib kelishmoqda va uning islom moliya tarmog'idagi aktivlar hajmi yildan yilga oshmoqda. Bugungi kunda Rossiyada Sberbank va AK BARS Banki muhoraba va muzoraba shartnomalari asosida islom moliya xizmatlarini taqdim etishmoqda. Bundan tashqari, Rossiyada islom moliya markazi, "Allianz life" takoful jamg'armasi ham faoliyat yuritmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiya dumasi (qonunchilik palatasi) Dog'iston, Checheniston, Boshqirdiston va Tataristonda 2023-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-sentabrgacha islom bank tizimini joriy etish bo'yicha tajriba o'tkazish to'g'risidagi qonunni uchinchi o'qishda qabul qildi. Tajriba ishtirokchilari ro'yxati Rossiya banki (Markaziy bank) tomonidan yuritilishi belgilandi. Bunga ko'ra, fuqaro va tashkilotlarga foizsiz asosda qarzlar berishga asoslanganligi ham tahsinga sazovordir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

MDH mamlakatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda islom moliya sanoati muvaffaqqiyatlama qurilmoqda va ijobji natijalarga erishmoqda. Shuningdek, Rossiyada ham islom banklarini tashkil etishga doir qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

Islomiy moliyalashtirishda XSRIK tomonidan 2010-yil Toshkentda Taiba Leasing tashkil etildi. Mazkur lizing kompaniyasi O'zbekistonda to'liq shariatga mos ravishda ijara (lizing) xizmatlarini yuridik shaxslarga taqdim etib kelmoqda, xususan, 2010-2017-yillar mobaynida korporatsiya tomonidan 26,3 million dollarlik 200 dan ortiq loyiha moliyalashtirilgan. Loyihalarning asosiy ulushini 45,4 % qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog'iga, 14,8%i yengil sanoatga, 4,96%i transport xizmatlariga, 4,95%i oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda islomiy moliyalashtirishga doir alohida qonunlar mavjud emas. Hozirda, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishda "murobaha", "istisno" va "ijara" kabi moliyalashtirish vositalaridan foydalanib, ITB va XSRIK tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlari, asosan qurilish, farmasevtika, to'qimachilik, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarini moliyalashtirishni qamrab oladi. Shuningdek, O'zbekiston 2019-yilda Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasiga (ITFC) a'zo bo'ldi va 2018-yili O'zbekiston hukumati va ITFC o'ttasida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida 100 million dollarlik hadli bitim imzolangan. Unga ko'ra korporatsiya O'zbekistonning tashkilotga a'zoligiga qadar savdo loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va ITFC tomonidan Aziya Aliyans Bank, Trastbank va Kapitalbankka murobaha moliyalashtirish liniyasi taqdim etildi.

Tadqiqotimiz natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlantirishga kirishilgan bo'lib, bunda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Rossiyada amalga oshirilgan ishlar tashsinga sazovordir. O'zbekistonda esa islom moliya amaliyoti va rivojanishi yuqoridagi mamlakatlar orasida ancha orqada. Aholining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan O'zbekiston uchun islom banklari va xizmatlarini tashkil etish ancha muhim sanaladi. Shuningdek, islom moliysi nafaqat tadbirkorlar, balki, jismoniy shaxslar uchun ham muhim bo'lgan sohadir.

Yuqoridagi mamlakatlarning tajribasidan O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Eng avvalo, me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholiga islom moliyasiga doir tegishli tushuntirish ishlarini olib borish va ular ongida islom moliyasiga doir ma'lum bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, turli davlatlar ya'ni investor mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kerakligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baydaulet, E. A. Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 432 b.
2. Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li, "O'zbekistonda islom moliyasining rivojanishi: to'siqlar va tavsiyalar", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2022-yil 2-son mart-april (№ 00058).
3. Usmani Muhammad Taqi, (2007), "Sukuk and their contemporary applications" Translated from the original Arabic by Sheikh Yusuf Talal DeLorenzo, AAOIFI Shari'a Council meeting, Saudi Arabia. 15 p.;
4. Chapra M.U, (2011), "The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help?// Islamic Economics and Finance: A European Perspective, edited by J.Langton, C. Trullols and A.Turkistani. London: Palgrave Macmillan.135-142 p.;
5. Habib Ahmed (2002), "A Microeconomic Model of an Islamic Bank" Islamic Research and Training Institute, 39p;
6. Л.Р. Сюйянен, (1986), "Мусульманское право" Вопросы теории и практики, М. 254 с.
7. Трофимова О. (2009), Мусульмане и ислам в Западной Европе // Мировая экономика и международные отношения. №10. с. 52-62;
8. В.В. Павлов, (2003), "Исламские банки в исламском финансовом праве" М, 256 с.
9. Р.И. Беккин, (2010), " Исламская экономическая модель и современность", М.:Изд, дом "Марджани", 367 с;
10. Антропов В.В, (2017), Исламские финансы в глобальной экономике: современные тенденции перспективы. Причины появления исламских финансов // Экономический журнал. №48.с. 57-77;
11. Xasanov X, (2017), Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovations moliyalashtirish vostiasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5 .;
12. Abrorov S.Z. (2020), O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari. 08.00.07-Moliya, pul muomilasi va kredit PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T;
13. Imamnazarov J.M, (2023), Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish 08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T.
14. Zayniddinov R.X, (2022), Toshkent, O'zbekistonda islom moliyasining rivojanishi: to'siqlar va tavsiyalar. 2/, mart-aprel (№ 00058). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. DOI: 10.55439/EIT/vol10\_iss2/a4. 27-41 b.
15. G'ofurova Maftuna, Abdullayev Axrorjon, "O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishdagagi imkoniyat va istiqbollari", "islom investitsiya mahsulotlari: xususiyatlari va rivojanish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 25-iyunda Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan.
16. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon. B. Jo'rayev tarjimasi. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 360 b.
17. 1-jadval Xorijlik mutaxassislarining bergan ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan
18. <https://islommoliyasi.uz/uz/6819/>



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

